



**YENGIL SANOAT MAHSULOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SIFAT MENEJMENTI MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

**Umurov Behruz Hamza o‘g‘li**

*Jizzax politexnika instituti*

*M va S kafedrasi, 1- kurs magist*

[umurovbehruz5@gmail.com](mailto:umurovbehruz5@gmail.com)

**Ung‘arov Jahongirbek Yo‘ldosh o‘g‘li**

*Jizzax politexnika instituti*

*M va S kafedrasi, katta o‘qituvchisi*

[jahongirungarov7@gmail.com](mailto:jahongirungarov7@gmail.com)

**Djamolov O‘tkir Ilhomovich**

*Jizzax politexnika instituti*

*M va S kafedrasi, i.f.d.dotsent*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yengil sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ISO, xomashyo, aksiyadorlar, ta‘minotchilar, sifat, tizim, sertifikat, audit, tekshiruv, natija.*

**Аннотация:** *Статья посвящена интенсивной переработке готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, модернизации и диверсификации отрасли, а также повышения конкурентоспособности продукции легкой промышленности.*

**Ключевые слова:** *ISO, сырье, акционеры, поставщики, качество, система, сертификат, аудит, инспекция, результат.*

**Abstract:** *The article is devoted to the intensive processing of finished products with high added value based on the deep processing of local raw materials, modernization and diversification of the industry, as well as increasing the competitiveness of light industry products.*

**Key words:** *ISO, raw materials, shareholders, suppliers, quality, system, certificate, audit, inspection, result.*

**Kirish.** Hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiy taraqqiyotga erishishga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Asosan mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish oldimizga maqsad qilib qo‘yildi.





**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi vaqtda yengil sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal etilishiga bog'liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki mahsulot ishlab chiqarishda faqatgina ko'proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir. Bunda yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ISO 9000 seriya standartlari qabul qilingach, sifatni kompleks boshqarishning ma'lum darajasi belgilab beriladi. U sifatni samarali boshqarishni ta'minlab, ISO 9000 seriyali standartlarining barcha zarur elementlari, hamda korxonaning ixtisoslashuvi uchun qo'shimcha talab etilgan elementlarni ham, korxonaning ish amaliyotiga joriy etilishi kerakligini shart qilib qo'yadi va bu bilan buyurtmachiga sifat kafolatini beradi. ISO 9000 standartlari va Sifat menejmenti tizimini joriy etish konsepsiyasi korxonalarining faoliyat turiga ham, katta-kichikligiga cheklovlar qo'ymaydi [1,2].

Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda sifat menejmenti mexanizmini rivojlantirish iste'molchiga e'tiborni qaratishga asoslangan bo'lishi kerak. Korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi, avvalo uning buyurtmachilariga bog'liqdir.

Iste'molchilarning talablari va tashkilot faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa tomonlar (aksiyadorlar, ta'minotchilar, davlat organlari, butun jamiyat)ning ehtiyojlariga ham baravar yondoshuvni ta'minlash zarur. Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda rahbariyat ko'magisiz salmoqli natijalarga erishish mushkul. Tashkilot rahbarlari ishlab chiqarish faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, maqsadlarini, shuningdek, ularni amalga oshirish usullarini belgilashadi. Ular shunday shart-sharoit yaratishlari lozimki, xodimlar nafaqat rahbariyat buyruqlarining ijrochisiga, balki ishlab chiqarish masalalarini hal etishda manfaatdor qatnashchilarga aylanishlari lozimdir [3,4].

Korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda jarayonli yondoshuvni joriy etish katta ahamiyatga ega. Bu yondoshuvning mohiyati shundan iboratki, har qanday faoliyat bir jarayondir va bu jarayon turli resurslardan foydalanish va boshqaruv ta'siri orqali, kirish oqimlarini va chiqish oqimlariga aylantiradi.

Doimiy takomillashuv korxonaning asosiy maqsadi bo'lib qolishi kerak. Hozirgi sharoitda, buni amalga oshirmasdan, biznesda yetakchi o'rinlarga chiqish mumkin emas. Faoliyat muntazam takomillashib borsa, nafaqat raqobatdosh mavqey saqlab qolinadi, balki sekin-asta zararlarni kamaytirish va shunga mutanosib ravishda, daromadni ko'paytirish imkoni paydo bo'la boshlaydi [5,6].

Haqiqiy ma'lumotlar va axborotga asoslanib qabul qilingan qarorlar samarali bo'ladi. Bu ishni amalga oshirish, avvalo korxonaning faoliyati haqida ishonchli va aniq ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ayni vaqtda, asta-sekin foydali bilimlarga aylanadigan axborotni to'plashni talab qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'minotchilar o'rtasida o'zaro manfaatli asosda yo'lga qo'yilgan munosabatlar har ikki tashkilotning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Buning uchun esa, asosiy ta'minotchilarni tanlash, aniq va ravshan aloqalarni o'rnatish, oldindan





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ma'lumot almashish, iste'molchilarning ehtiyojlarini aniq anglash uchun hamkorlik qilish, qo'shma loyihalarni yaratish hamda mahsulot va jarayonlarni takomillashtirish talab etiladi.

Agarda yengil sanoat sohasida ishlaydigan korxonalar ISO 9000 ni qo'llamasa, lekin standartlar talabiga mos keladigan Sifat menejmenti tizimini joriy etsa va sertifikatlasa, qo'shimcha raqobat ustunligiga erishishlari mumkin (ayrim hollarda Sifat menejmenti tizimi uchun ISO 9000 sertifikati zaif korxonalar uchun savdo to'sig'i bo'lib qolishi ham mumkin). Lekin ko'pincha teskari holat yuz beradi, ya'ni korxonalar faqat raqiblaridan orqada qolmaslik uchungina ISO 9000 sertifikatini olishga majbur bo'ladilar. ISO 9000 sertifikatining mavjudligi korxonaning sifat g'oyalariga sodiqligini dalolatlaydi, bu uning ham ichki, ham tashqi bozorlardagi imidjini mustahkamlaydi. Hukumat va boshqa aloqador shaxslar (mijozlar, ta'minotchilar, nazorat organlari) bilan munosabatlarni yaxshilashga intilish tufayli, ISO 9000 asosidagi Sifat menejment tizimi joriy etiladi [7,8].

**Xulosa:** Hozirgi kunda shubhasiz, mahsulot sifatini yaxshilash, unumdorlikni oshirish, chiqimlarni kamaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabi omillar korxonaning bozordagi ulushi ortishiga olib kelmoqda. Sifat menejmenti tizimining joriy etilishi sifat sohasidagi maqsadlarning bajarilishiga, auditlar natijacida nomuvofiqliklar sonining kamayishiga, potensial muammolarni bartaraf etish bo'yicha oldini oluvchi amallarning to'g'rilovchi amallarga nicbatini, mahsulot rentabelligining oshishiga, iste'molchilar qanoatlanganligining oshishiga, shuningdek korxonalar iqtisodiy samaradorligining oshishiga olib keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isroilov F. M., Rakhmonov F. A., ugli Ungarov D. Y. HIGH RESPONSIBILITY (SENSITIVITY) AND ACCURACY OF TEMPERATURE SENSORS FACTORS OF ACHIEVEMENT AND RELIABLE OPERATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 163-169.

2. Abduxakimovich R. F. et al. ISO 14000 SERIYALI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA EKOLOGIK MENEJMENT TIZIMI VA ATROF-MUHITNI BOSHQARISHNING XALQARO STANDARTLARI //World scientific research journal. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 20-26.

3. Isroilov F. M. et al. O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARIGA O 'RNATUVCHI MEYORIY STANDART TALABLAR //Студенческий вестник. – 2021. – №. 21-10. – C. 70-72.

4. Шертайлақов F. M., Ўнғаров Ж. Й. ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР МИҚЎСИДА МУВОФИҚЛИКНИ БАҲОЛАШ ФАОЛИЯТДА ISO 9001: 2008 СТАНДАРТИ БИЛАН ISO 9001: 2015 СТАНДАРТИ ТАҲЛИЛИ //World scientific research journal. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 27-38.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

5. Ganisherovich B. A. et al. THE ROLE OF WIDE EXPORTS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY //Archive of Conferences. – 2021. – C. 99-101.

6. kizi Yusupova N. K., ugli Ungarov D. Y., Shertaylakov G. M. INTRODUCING INTELLECTUAL MEASUREMENT INSTRUMENTS TO PRODUCTION PROCESSES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 76-80.

7. Yuldash o'gli U. J., Jumanazar o'gli M. S. USE OF INTERNATIONAL STANDARDS OF AUTOMATION OF PRODUCTION PROCESSES. – 2023.

8. ugli Ungarov D. Y., Shertaylakov G. M. IT IS THE MAIN GUARANTEE OF CONSUMER RIGHTS PROTECTION TAKING INTO ACCOUNT THE CHARACTERISTICS OF INTERNATIONAL STANDARD REQUIREMENTS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 103-106.

